

ZULFIYAXONIM SHE'RIYATIDAN SABOQ OLAMIZ

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari

Tosheva Shohida Himmatovna

Mustafakulova Nilufar Elmurod qizi

Annotatsiya: *Bu maqolada XX asr adabiyoti vakilasi Zulfiyaxonim ijodining o'ziga xos hususiyatlari haqida so'z boradi. Davlat rahbarimiz tomonidan Zulfiyaxonimni yod etib aytgan so'zlari maqoladan joy olgan. Shoiraning she'rlarida muhabbat va sadoqat kabi insoniy tuyg'ularga urg'u berilgan.*

Аннотация: *В данной статье говорится об уникальных особенностях творчества Зульфийяханим, представителя литературы XX века. В статью включены слова главы нашего государства в память о Зульфийяханум. В стихах поэта подчеркиваются такие человеческие чувства, как любовь и верность.*

Annotation: *This article talks about the unique features of Zulfiyakhanim's work, representative of 20th century literature. The words of our head of state in memory of Zulfiyakhanim are included in the article. The poet's poems emphasize human feelings such as love and loyalty.*

Kalit so'zlar: *yetuk badiiy asar, musaffo tong, Saylanma, Gulbadanbegim, poyoni yo'q, detal, tirik mavjudod.*

KIRISH

Insonga umr bir marta beriladi. Har bir inson o'z umrini o'zi xohlagandek o'tkazadi. Shunday insonlar borki, ular bu dunyoni tark etsalar-da, mazmunli hayot yo'llari sabab dillarda mangu barhayotdirlar. Mana shunday barhayot siymolardan biri o'zbek she'riyatida o'zining serqirra ijodi bilan o'chmas iz qoldirgan, betakror iste'dodi, Vatanga muhabbat, vafo va sadoqat tuyg'usini, olijanob insoniy fazilatlarni yuksak pardalarda tarannum etgan yetuk badiiy asarlari, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyati bilan milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda ulkan xizmatlari bilan xalqimiz hayotida beqiyos o'rin yegallagan shoira – Zulfiya Isroilovadir.

ASOSIY QISM

«Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz», — degan edi Shavkat Mirziyoev Adiblar hiyoboniga tashrifi chog'ida.

“Shoira Zulfiya Isroilovanning o'zbek she'riyatida paydo bo'lishi tong yulduzining tug'ilishiga teng voqea bo'ldi”,– deb yozadi ustoz Mirtemir. Negaki o'sha davrlarda ayollar orasida qo'liga qalam olganlar sanoqligina bo'lib, ularning ham aksar qismi tanilib ulgurmay, tez “so'nib” qolar edi. Lekin Zulfiyaxonim she'riyatimizga musaffo tong, erkin hayot, ona baxti, ayol qalbi, baxtiyor hayot kuychisi sifatida kirib keldi. Temirchi oilasida voyaga yetgan shoiraning qalami, irodasi hayotning, turmushning otashida temir kabi toblanganday go'yo.

Shoira Zulfiya haqida so‘z borganda, yurtboshimiz Islom Karimovning aytganlarini eslash joiz: “Nafaqat o‘z she‘rlari bilan, balki butun hayot yo‘li bilan o‘zbek xalqining ma‘naviy qiyofasini namoyon eta olgan atoqli, fidoiy inson bo‘lib jasorat ko‘rsatdi”.

Zulfiyaning she‘rlarida hozirjavoblik, haqqoniylik, tematik kenglik, aniqlilik, chuqur lirizm, jo‘shqinlik, o‘ta samimiylik, xalqchilik, obrazlilik kabi xususiyatlarga xosdir. Zulfiya she‘rlari harorat bilan bitilgan ehtirosli, hayotbaxsh she‘rlardir. Ular goh vatan haqida, uning go‘zal tabiati, mehnatkash odamlari, buyuk bunyodkorlik qudrati xususida bo‘lsin, goh insonlarning turfa; mehr-muhabbat, quvonch-u shodlik, baxt, saodatni tarannum etishga bag‘ishlangan bo‘lsin, barchasida hayotsevarlik, o‘quvchida yorug‘ kayfiyat paydo etish istagi hukmronidir. Betakror ijodi, Vatanga sadoqat, vafo va sadoqat tuyg‘usini, oliyjanob fazilatlarini yuksak pardalar tarannum etgan yetuk badiiy asarlari ibratli hayoti va madaniyatimiz rivojiga, xalqimiz ma‘naviyatini yuksaltirishga qo‘shgan ulkan hissasini inobatga olib har bahorning ilk kunida yodga olish, hamda tavalludini munosib nishonlash xalqimizga an‘ana tusiga aylanib bormoqda. Uning hayoti davomiyligida she‘riyat olamiga o‘chmas iz qoldirdi.

Zulfiya zamondoshlari xotirasida “Saylanma” asari ijodiyot olamidan bo‘rtib chiqqan asardir. Zulfiyaxonim zamonamizning zabardast shoirasi va jamoat arbobi sifatida O‘zbekistonning jarangdor ovozi bo‘ldi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Sharq ayolining aql-u zakovati fazl-u kamolidan noyob nishonasi sifatida latif ijodi bilan millionlab kishilarga ezgulik, muhabbat va sadoqatdan saboq berdi.

Hayot sinovlari uni ham ayagani yo‘q albatta, aslida bu yorug‘ dunyoda ayriliq va hijron azobi hammani ham boshida bor, doimo g‘am anduhni matonat bilan mahf etib armonlaridan tirik orzular yaratgan, tog‘dek bardoshi bilan sadoqat va vafo ramziga aylangan. Zulfiyaxonim Hamid Olimjonning quyidagi o‘ktam satrlarini hayotiy shior etib o‘zida mardona yashash hissi bilan rang-barang so‘zlar orqali ifoda etgan:

Rozimasman bir yosh tomsa ko‘zimdan,
Rozimasman sal rang ketsa yuzimdan.
Yo‘l ochsam-u, sal yashashdan adashdim,
Rozimasman unda tamom o‘zimdan.

Sharq fozila ayollari Gulbadanbegim, Zebiniso, Uvaysiy, Nodirabegim kabi shoirlar an‘analarini boyitib, yangi pog‘onalarga ko‘tardi.

Shoiraning she‘riyatida insonning his-tuyg‘ulari yorqin aks etgani uchun ham barchaga birdek xush yoqadi. Masalan, “Ko‘rganmidim, ko‘zlarimda yosh” she‘rida:

“Sog‘inganda izlab bir nishon,
Qabring tomon olar edim yo‘l.
Keltirarding, menga bir zamon,

Endi har chog‘ men eltaman gul”, – degan misralari orqali vafoli yorning o‘z umr yo‘ldoshiga sadoqati, umr yo‘ldoshidan erta ajralgan bo‘lsa-da, uning mehr-muhabbatini hali hanuz qalbida asrayotgani va vafoning ramzi uning o‘z umr yo‘ldoshini bot-bot gul bilan qabr qoshida yodga olishi mahorat bilan tasvirlangan. “Nur” she‘rida esa:

“Onam mehr to‘la dil amri bilan,
Uxla, – deb so‘ndirib ketdi chiroqni.
Va lekin ko‘zlarim oldida birdan,

Ochdi poyoni yo‘q yaqin-yiroqni.

Hayotim, ishlarim, ijodimda ul,

Otaday ilgari boshlab yuribdi”.

Hozir siz o‘qigan she‘rning ham har yo‘l, baytida o‘sha nur porlab turibdi, – deya ota – onaning o‘z farzandi yo‘lini nur kabi yoritishi, har bir o‘giti, amali farzandga hayot ibrati ekanini ta’kidlaydi. Aytish mumkinki, shoira she‘riyati o‘z davridayoq qadr topdi. Uning ibratli ishlari, davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini bog‘lay olgani unga Xalqaro “Nilufar”, “Neru” kabi mukofotlarni tuhfa etdi. Shoiraning she‘rlari ingliz, rus, nemis, bolgar, xitoy, hind, yapon, arab va vetnam tillariga tarjima qilindi, shuningdek, shoiraning o‘zi ham tarjimon sifatida rus, ukrain, ozarbayjon va hind xalqlari shoirlarining she‘rlarini o‘zbek tiliga tarjima qilib, adabiyotimizni jahon adabiyoti asarlari bilan boyitdi.

Uning tabiatga, hayotga mehri bo‘lakcha edi. Shoira she‘rlarida tabiat va olamni o‘z vujudiga, yuragiga jamlab yozadi, ularni qalban his qiladi: dengizga aylanib hayqiradi, goh dardlarini unutilib sokin chayqaladi, mavjlanadi, tabiat bilan bir butun bo‘lib ketadi:

“Men dengizning labida turdim,

Dengiz bo‘lib chayqaldi yurak.

Men dengizning labida turdim,

Unut o‘zim, unut tevarak”.

Zulfiyaning eng sevgan mavzusi bahor va insonning bahoriy kayfiyati va tashvishlaridir. Ehtimol, bunda H.Olimjon ijodining doimiy ta’siri sabab bo‘lgandir. Bahor tasviriga bag‘ishlangan har bir she‘rida shoira uning yangi-yangi qirralarini ochadi. Faqat poetik mavzu ana’naviylicha qoladi, xolos:

“Sindi qish to‘qigan muz misli qafas,

Mana,yana qushlar chug‘urlab qoldi.

Ona nigohiday muloyim nafas

Zaminu Osmonni bag‘riga oldi,

Demak,bahor keldi”.

Shoira poetik fikrning originalligi tufayli an’anaviylik chegarasidan chiqib, mavzuning yangicha talqinini yuzaga keltiradi. Bahor faslidagi har bir detal shoiraning nazaridan chetda qolmagan:

“Ona turgan xonaga

Qizi kirdi yugurib,

Go‘yo sig‘may olamga

Dedi shoshib ko‘pirib:

Oyi qanday chiroyli

Hurriyatning lolasi.

Chiqib tersak maylimi,

Urushmasmi onasi?

Oyijonim, tez yuring,

Ko‘rsataman qizil gul”.

Bahor faslining eng go‘zal gullaridan biri, tabiatning tuhfasini lolaqizg‘aldoqning intizorlik bilan ochilishini kutgan qizaloqlarni quvonchi ichiga sig‘may, xuddiki bugun yoki ertaga

lolaqizg‘aldoq tugab qoladiganday tasvir etilgan. Bahor. Inson qalbini yayratuvchi, unga olam-olam quvonch keltiruvchi fasl bu. Butun tirik mavjudotni harakatga keltiruvchi bu fasldagi tabiat o‘zgarishlari shoira tasavvurida o‘zgacha bir go‘zallik tushunchasigina bo‘lib qolmasdan, hayotda allaqachon amalga oshgan yangi hayot to‘lqini bo‘lib gavdalanadi. Shoira lirik qahramoni bahor kelib, yer yuzidagi qish manzarasini o‘zgartirishini yangi o‘zgarishlar bilan butun insoniyat bahori boshlanishi bilan qiyos qiladi:

“Hali unday gullarni
Ko‘rmagansiz hech qayda.
Hatto yo‘q kitobdagi
Quyvon kezgan to‘qayda.
Qizcha xuddi chittakday
Sakrab ketdi shu zamon”.

Lirik qahramon qalbi quvonchga to‘la. Chunki u bahorda dunyo yuzini ko‘rdi. Uning nazarida, xuddiki lolaqizg‘aldoq bugun tugab qoladiganday. Lekin u hech qachon tugamaydi. Bahor kelishi bilan yana bo‘y ko‘rsatadi. Qizaloqlar ham voyaga yetadi. Zulfiya Bahor mavzusiga bag‘ishlangan she‘rlarida o‘z lirik qahramonining ma‘naviy dunyosini tabiat manzaralari fonida ochishga harakat qilgan. She‘rlarini o‘qib, inson qalbi va tabiat tovlanishlarining shoira nozik kuzatishlari va teran falsafiy umumlashmalari uchun katta imkoniyat ochganligining shohidi bo‘ldik.

Shoira johillik tufayli eri yoki ota-akasi tomonidan o‘ldirilgan, gulday umri xotin-qizlar ozodligi yo‘lida bevaqt so‘ngan iste‘dodli ayollar taqdiri haqida ham kuyinib yozadi:

“Somon yo‘lidan ham uzoq yo‘l bosding,
Kelib yetishguncha sen bu huquqqa.
Qancha jon, qancha qon, umid, iste‘dod
Qancha Tursunoylar cho‘kdi quduqqa”

Shoira o‘zining “Studentka” sarlavhali she‘rini bevosita talaba qiz(lar)ga bag‘ishlagan. Talaba qizning onasi erisha olmagan baxtga erishganligini ta‘kidlab, unga nafaqat o‘zi, balki onasining talaba bo‘lish baxti haqidagi armoni ushalishi uchun ham yaxshi o‘qishi zarurligini yetkazadi.

“Keksa onang mehri barq urib,
U ham yostig‘in tark etadi.
Kechikmasin qizim deb turib,
Qaynatib choy, senga tutadi.
Savod so‘zin bilmadi onang,
Sen-chi, mudom kitobga yo‘ldosh.
Nelar ko‘rgan inson o‘tmishda,
Nelar bo‘lgan, shu dono sirdosh”.

Shoira talaba qizga uning kelajagi porloq, yo‘llari nurli ekanligi va uni yangi hayot, fayzli hayot kutayotganligini baralla aytadi. She‘r garchi birgina talaba qizga qaratib yozilgan bo‘lsada, aslida uning mazmuni barcha talaba qizlarga qaratilgandir.

1954-yildagi Xirosima urushining oqibatida halok bo‘lgan kishilar haqida eshitib shoira o‘zining “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush” she‘rini yaratadi:

“Urush! Noming o‘chsin jahonda,
Hamon bitmas sen solgan alam.
Sen tufayli ko‘p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam...
Ko‘krak suti va mehnat bilan
Biz jahonga berganmiz turmush
Ona qalbi oyoqqa tursa,
O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush!”

Urushda halok bo‘lgan otalarning farzandlariga ona – ota nomli buyuk shodligini yo‘qotgan, cheksiz mashaqqat va mehr muhabbat bilan yurtga o‘g‘il o‘stirgan mehnatkash oilaning boshlig‘i. Ona qalbi – insoniyat qalbi. Uning hayajonli tuyg‘ularida buyuk ishonch bor, – deya she’rni ta’rif etadi vatandoshimiz Asqad Muxtor.

XULOSA

Zulfiya sevgi, sadoqat, hijron, ona, vatan, tong, tinchlik, dunyo, hurriyat, hayot, umr, yurtdoshlari va taqdiridoshlari jasorati, shodligi, iztiroblari, fojiasi, irodasi haqida ham qalam yuritdi, yuritganda ham ularni o‘z shaxsiy nuqtai nazari bilan shaxsiy dard-u tashvishi tarzida talqin qildi. Unda yolg‘izlik iztirobi va ayollik irodasi o‘ziga xos tarzda samimiy ifoda etilgan. Zulfiyaxonim vafo va sadoqat timsoliga aylangan o‘zbek onasi, o‘zbek ayoli, o‘zbekning shoirasi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shoira o‘z dardlarini, xalqiga bo‘lgan muhabbatini, ichki his tuyg‘ularini, o‘z yoriga bo‘lgan vafo-sadoqatini quyma satrlar va badiiy tasvir vositalari orqali tasvirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Zulfiya. Tanlangan asarlar. Toshkent. O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959.
- 2.K.Xoshimov, S.Nishonova “Pedagogika tarixi” Toshkent. 2005.
3. Internet manbalari daryouz.
- 4.Zulfiya. Yillar sadosi: Saylanma.- T.: G‘afur G‘ulom, 1905.